



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



SOTSIOLINGVISTIKA VA TIL SOTSILOGIYASI

Arzimurodova Dilsevar Sherali qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi fanlarining mazmun-mohiyati, tadqiqot obyekti hamda metodologik asoslari qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu ikki yo'nalishning mushtarak va farqli jihatlari aniqlanib, ularning til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, lingvistik sotsiologiya tushunchasi hamda amaliy sotsiolingvistikaning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari til siyosati, ko'p tillilik va tilni me'yorlashtirish muammolarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Sotsiolingvistika, til sotsiologiyasi, jamiyat va til, lisoniy variativlik, til siyosati, amaliy sotsiolingvistika

Annotation. This article provides a comparative analysis of sociolinguistics and the sociology of language as significant interdisciplinary fields within modern linguistics. The study examines their research objects, methodological foundations, and theoretical approaches, highlighting both common and distinctive features. Special attention is given to the direction of analysis in each discipline, as well as to the concept of linguistic sociology and the issues of applied sociolinguistics. The findings contribute to the understanding of language policy, multilingualism, and language standardization in contemporary societies.

Keywords. Sociolinguistics, sociology of language, language and society, linguistic variability, language policy, applied sociolinguistics

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ социолингвистики и социологии языка как важных направлений современного языкознания. Рассматриваются их объект исследования, методологические основы и теоретические подходы, выявляются общие и отличительные черты. Особое внимание уделяется направленности анализа в каждой дисциплине, а также понятию лингвистической социологии и актуальным проблемам прикладной социолингвистики. Полученные результаты имеют значение для изучения языковой политики, многоязычия и нормирования языка.

Ключевые слова. Социолингвистика, социология языка, язык и общество, языковая вариативность, языковая политика, прикладная социолингвистика.

Qator tadqiqotchilar "sotsiolingvistika" termini bilan bir qatorda "til sotsiologiyasi" terminini ham qo'llaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar ularni sinonim deb hisoblasa, boshqalar sotsiolingvistikani til sotsiologiyasining bir yo'nalishi sifatida, har birini boshqa-boshqa tushuncha deb farqlash kerakligini ta'kidlaydilar.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Aksariyat zamonaviy sotsiolingvistlarning fikrlariga ko'ra, sotsiolingvistika bu til sohasi bo'lib, u til hodisalarini ijtimoiy omillarni jalb qilgan holda o'rganadi; til sotsiologiyasi esa fanlararo chatishgan soha bo'lib, u sotsiologik maqsad va tadqiqot metodlarini lingvistik materiallar bilan aloqadorlikda tadqiq etadi.

Ijtimoiy sharoitlarga bog'liq bo'lgan til variativligini o'rganadigan sotsiolingvistikadan farqli o'laroq, til sotsiologiyasi tilning, xususan, turli ijtimoiy guruhlarda til variantlarining qanday taqsimlanganligi va bu guruhlar qanday qilib til orqali o'z maqsadlariga erishishlari bilan qiziqadi.

Masalan, sotsiolingvistni hokimiyatning tilni boshqarishi, uning tilni ijtimoiy demagogiya yoki haqiqatni yashirish vositasi sifatida qo'llashi yoki siyosiy raqib bilan shaxsiy obro'-manfaatga futur yetkazmasdan kelishish yo'llari qiziqtiradi. Ya'ni, sotsiolingvist "tildan", til faktlaridan kelib chiqib ish ko'rsa, til sotsiologi "jamiyatdan", ijtimoiy munosabatlar va institutlardan kelib chiqqan holda ish ko'radi.

Shunday qilib, sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi tadqiqot maqsadi va vazifalarida ko'plab mushtarakliklarga ega, biroq mazkur maqsadlarga erishishda va vazifalarni amalga oshirishda ularning yo'llari bir-biridan farq qiladi: birinchisi tildan jamiyatga, ikkinchisi esa jamiyatdan uning lisoniy xususiyatlariga tomon boradi.

Ayrim tadqiqotlarda bu ikki termindan tashqari yana lingvistik sotsiologiya yoki lingvosotsiologiya ham ajratiladi. L. B. Nikolskiyning ushbu tushunchaga bergan ta'rifidan kelib chiqib, uni "til sotsiologiyasi" terminining mazmuniga juda yaqin turishini aytish mumkin. Lingvistik sotsiologiya ijtimoiy sohalar va jarayonlarni ularning lisoniy aksi orqali o'rganadigan yo'nalishdir.

Qator fanlar o'z oldida turgan vazifalarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyot bilan bog'lab ham hal qiladi. Odatda, bunday yo'nalishlar amaliy deb yuritiladi. Masalan, yozuvsiz mayda millatlar uchun yozuv va alifbolar tuzishdan tortib, mashina tarjimasini, matnni avtomatik qayta ishlash va ma'lumotlar qidirish kabi keng amaliy muammolar bilan shug'ullanadigan amaliy tilshunoslik, yoki amaliy matematika, amaliy psixologiya va qator boshqa amaliy fanlarni ko'rsatish mumkin.

Amaliy sotsiolingvistika obyektini ona tili va chet tillarini o'qitish, davlat til siyosatini tashkil qilish, amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va boshqa muammolar tashkil qiladi. Sotsiolingvistik nazariyalar va sotsiolingvistik tadqiqotlarning amaliy yechimini topish ko'pincha u yoki bu davlatdagi lisoniy vaziyatlarning tabiatiga bog'liq bo'ladi.¹²⁷

Ko'p tilli davlatlardagi muammolar bir xil emas, bir tilli davlatlardagi muammolar esa boshqacha xarakterga ega. Ko'p tillilik sharoitida yagona mamlakatda yashovchi barcha millatlarga muloqot vositasi bo'lib xizmat qiluvchi, shuningdek, davlat tili mavqeyidagi makrovositachi tilni tanlash masalasi o'ta muhim hisoblanadi.

¹²⁷ Sh.Usmanova, N.Bekmuxamedova, D.Iskandarova. "Sotsiolingvistika" o'quv qo'llanma. "Universitet" nashriyoti. Toshkent -2014.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Bir tillilik sharoitida esa adabiy tilni me'yorlashtirish va kodlashtirish, uning boshqa milliy til tizimlari bilan munosabati masalasi dolzarbdir. Shunga ko'ra, sotsiolingvistik muammolarni ishlab chiqish hamda sotsiolingvistikaning amaliy yo'nalishlarini belgilash turlicha bo'ladi.

Zamonaviy tilshunoslik fanida tilni faqat ichki tizim sifatida emas, balki jamiyat bilan uzviy aloqada bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchayib bormoqda. Ana shu ehtiyoj natijasida XX asrning ikkinchi yarmida sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi kabi fanlar shakllandi. Bu yo'nalishlar til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etadi. Har ikki fan tilning ijtimoiy tabiatini yoritishga xizmat qilsa-da, ularning tadqiqot obyektlari, yondashuv yo'llari va maqsadlarida muayyan farqlar mavjud.¹²⁸

Sotsiolingvistika, avvalo, tilshunoslik fanining bir bo'limi sifatida shakllangan bo'lib, uning asosiy e'tibori til hodisalarining ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini o'rganishga qaratilgan. Bu fan tilning turli ijtimoiy qatlamlar, guruhlar, hududlar va vaziyatlarda namoyon bo'ladigan variantlarini tahlil qiladi. Sotsiolingvistika tilning jamiyatdagi funksional xususiyatlarini, til variativligini, ijtimoiy dialektlar, nutq uslublari hamda til va shaxs munosabatini o'rganadi. Bu yo'nalishda til faktlari asosiy tayanch bo'lib, tadqiqotlar "tildan jamiyatga" qarab olib boriladi.

Ingliz tilshunosligida sotsiolingvistika mustaqil ilmiy soha sifatida e'tirof etilib, u tilning ijtimoiy muhitda qanday ishlatilishini, jamiyatning tilga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganadi. Masalan, U. Labov tadqiqotlarida til variativligi ijtimoiy sinflar, yosh, jins va nutq vaziyatlari bilan bevosita bog'liqlikda tahlil qilinadi. Bunday yondashuv sotsiolingvistikaning empirik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Demak, sotsiolingvistika til hodisalarini real nutq jarayonida kuzatish, statistik tahlil qilish va ijtimoiy omillar bilan bog'lash orqali xulosalar chiqaradi. Til sotsiologiyasi esa o'z mohiyatiga ko'ra fanlararo yo'nalish bo'lib, u sotsiologiya va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan. Bu fan tilni jamiyatning ijtimoiy instituti sifatida o'rganadi va tilning ijtimoiy tizimlarga, siyosiy jarayonlarga, madaniyatga va ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini tahlil qiladi. Til sotsiologiyasida asosiy e'tibor jamiyatdan tilga qarab yo'naltiriladi. Ya'ni, bu yo'nalishda ijtimoiy tuzilma, hokimiyat, ideologiya, milliy siyosat kabi omillar tahlil qilinib, ularning til orqali qanday namoyon bo'lishi o'rganiladi.

Joshua Fishman til sotsiologiyasini alohida fan sifatida asoslab, uning sotsiolingvistikadan farqli jihatlarini aniq ko'rsatib bergan. Uning fikricha, sotsiolingvistika tilning jamiyat tomonidan qanday shakllantirilishini o'rgansa, til sotsiologiyasi jamiyatning til orqali qanday boshqarilishi va tashkil etilishini tahlil qiladi. Shu jihatdan qaraganda, til

¹²⁸ Sh.Usmanova, N.Bekmuxamedova, D.Iskandarova. "Sotsiolingvistika" o'quv qo'llanma. "Universitet" nashriyoti. Toshkent -2014.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



sotsiologiyasi til siyosati, davlat tili masalasi, ko'p tillilik, til va milliy o'zlik muammolari bilan bevosita shug'ullanadi.

Til sotsiologiyasida til jamiyatdagi kuch munosabatlarning vositasi sifatida talqin qilinadi. Masalan, rasmiy tilning tanlanishi, uning davlat tili maqomiga ega bo'lishi yoki ayrim tillarning cheklanishi ijtimoiy va siyosiy qarorlar bilan bog'liqdir. Bu jarayonlarda til faqat muloqot vositasi emas, balki ijtimoiy nazorat, identifikatsiya va integratsiya vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli til sotsiologiyasi sotsiolingvistikaga nisbatan kengroq ijtimoiy masalalarni qamrab oladi.

Ayrim tadqiqotlarda sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi o'rtasidagi chegaralar qat'iy belgilanmaganligi ta'kidlanadi. Masalan, Ronald Wardhaugh bu ikki yo'nalish o'rtasida aniq chiziq yo'qligini, biroq ularning yondashuv nuqtalari farqlanishini qayd etadi. Uning fikricha, sotsiolingvistika tilni markazga qo'ygan holda jamiyatga murojaat qilsa, til sotsiologiyasi jamiyatni markazga qo'ygan holda tilni tahlil qiladi. Bu qarash har ikki fan o'rtasidagi metodologik farqni aniq ifodalaydi.

Sotsiolingvistika va til sotsiologiyasining mushtarak jihatlari ham mavjud. Har ikkala yo'nalish til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni e'tirof etadi, tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi va real nutq jarayonlarini o'rganishga tayanadi. Shu bilan birga, har ikkisi ham til siyosati, ko'p tillilik, til variativligi kabi muammolarga murojaat qiladi. Farq esa asosan tadqiqot yo'nalishi va maqsadida namoyon bo'ladi.

Amaliy sotsiolingvistika masalalari ushbu fanlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Amaliy sotsiolingvistika til o'qitish, til siyosatini ishlab chiqish, davlat tilini me'yorlashtirish, ko'p tilli jamiyatlarda muloqotni tashkil etish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar muayyan jamiyatdagi lisoniy vaziyatga bevosita bog'liq bo'ladi. Ko'p tilli jamiyatlarda makrovositachi tilni tanlash masalasi muhim bo'lsa, bir tilli jamiyatlarda adabiy til me'yorlarini mustahkamlash dolzarb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistika va til sotsiologiyasi zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlari bo'lib, ular til va jamiyat munosabatlarni turli rakurslardan yoritadi. Sotsiolingvistika til hodisalaridan kelib chiqib jamiyatni tahlil qilsa, til sotsiologiyasi jamiyatdan kelib chiqib tilning ijtimoiy funksiyalarini ochib beradi. Ushbu fanlarning uyg'unligi tilning ijtimoiy mohiyatini to'laqonli anglash imkonini yaratadi va zamonaviy lisoniy muammolarni hal etishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Usmanova, N.Bekmuxamedova, D.Iskandarova. "Sotsiolingvistika" o'quv qo'llanma. "Universitet" nashriyoti. Toshkent -2014.
2. D.Elova, G.Safarova "Sotsiolingvistika" o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-2021.
3. Abduvali Berdialiyev, Mo'minjon Turdibekov "sotsiolingvistika" darslik. "Nodirabegim" nashriyoti. Toshkent-2022.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



4. Abduvali Berdialiyev. “O‘zbek sinxron Sotsiolingvistikasi”. Toshkent-2019.
5. Zarif Aliqulov, Saodat Boymirzayeva. “Sotsiolingvistika” Samarqand – 2009.
6. https://www.oriens.uz/media/journalarticles/42_Boriyev_Islom_334-339.pdf

